


CHET TILINI O'RGATISHDA BOLALAR YOSH PSIXOLOGIYASINING AHAMIYATI VA SAMARALI USULLARI



Ilmiy rahbar: F.F. Yuldasheva

O'zDJTU katta o'qituvchisi

Muallif: Mohlaroy Qurbanova

O'zDJTU talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada chet tilini o'zlashtirish bo'yicha yosh davrlar psixologiyasining tasniflanishi hamda xorijiy tillarni o'rgatishda qo'llanadigan innovatsion metodlar va texnologiyalar batafsil yoritilgan. Shuningdek, maqolada bolalar psixologiyasida til o'rganishning eng ma'qul davrlari ham atroficha o'rjanilgan.

Kalit so'zlar: bolalar psixologiyasi, psixika va ong, innovatsiya, metod, axborot texnologiyalari, o'yin va mashg'ulotlar

Bolallik inson hayotining muhim davrlaridan biri, inson hayoti intihosi, ya'ni boshlang'ich nuqtasi, hisoblanadi. Bu davrning qanday boshlanishi va qay holatda o'tishi bolaning rivojlanishida g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bola rivojlanib borgani sayin uning psixikasi shakllanib boradi. Bu haqda D.B. Elkoin shunday ta'kidlagan: "bola jamiyat a'zosi va shaxs sifatida shakllanib borar ekan, uning psixikasi rivojlanib, olamni aks ettirish qobiliyati go'daklikdan yetuklik davrigacha murakkablashib va takomillashib boradi. Ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini bolalar psixologiyasi tadqiq etadi" [1].

Bola ongi rivojlanib o'smirlilik sayin odimlab borar ekan, o'z ichida bir necha bosqichlarni bosib o'tadi va bu yosh davrlari sanaladi. "Yosh davrlarining an'anaviy tasnifiga ko'ra bolalik—go'daklik (tug'ilgandan 1 yoshgacha), ilk bolalik(1 yoshdan 3- yoshgacha) va kichik maktab Yoshi(6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha) davrlarni o'z ichiga oladi" [1]. Til o'rganishda yosh davrlarining ahamiyati benihoya kattadir. Boisi, bolalarning yosh davrlarini inobatga olgan holda, ularning psixologiyasi mos til o'rganish uslublari ishlab chiqiladi. Ma'lumki, 1-prezidentimiz Islom Karimovning 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tilini o'rganish tizimini yanada takomilllashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ 1875 sonli qarorining natijasi o'laroq, hozirgi kunda nafaqat Universitet, litsey, kollej, umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilariga, balki maktabgacha ta'lim muassalarida ham ingliz tili mashg'ulotlari olib boorish yo'lga qo'yilgan. Aytishganlaridek, "Yoshlikda olingan bilim—toshga o'yilgan naqshdir". Zero, bolalar kattalarga nisbatan hamma narsani, ayniqsa, til o'rganishni oson o'zlashtiradiladilar. Bolalar psixologiyasida til o'rganishning eng ma'qul davri bu ilk bolalik davri, ya'ni 3 yoshdan boshlab til o'rganish hisoblanadi.

Boisi, go'daklik davrida, ya'ni 1-3 yoshlar oralig'ida bolada psixika va ong shakllanadi. Bola bu bosqichda, uni qurshab turgan atrof-muhitdagi narsalar nomlarini o'rganadi, bu davrda o'z ona tilisi shakllanadi. Bu davrda bolaga chet tilini o'rgatish bolaning chalg'ishiga olib keladi. Masalan, bola kitobni ko'rsatib, "bu nima" deb so'rasha, oyisi bir safar "kitob", keying gal esa "book" deb o'rgatsa, bolada ikkilanish paydo bo'ladi va bu esa bolaning o'z ona tilisi to'liq shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan holi emas. Bu borada esa, ota-onalar bolalarga e'tiborliroq bo'lishi darkor. Zero, bu davr mobaynida bolaning ona tilisi shakllanishni boshlaydi va bu esa chet tilini o'zlashtirishga fundament bo'ladi.

Maktabgacha yoshgacha bo'lgan davrda, ya'ni 3 yoshdan boshlab bolaga chet tilini o'rgatishni boshlash eng muhim davr sanaladi. Biroq, tabiiyki, bu ancha mashaqqatli va ayni damda ma'suliyatli vazifadir. Xorijiy tilni aynan 3 yoshdan 6-7 yoshgacha bo'lgan bolalarga o'rgatish mobaynida mashg'ulotlar davomiyligi ham ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulotlar odatda, 20-45 daqiqa davomiylikda bo'lishi ma'quldir. Aks holda, bolalar aqlan toliqib, zerikib, ularning yangi narsani o'rganishga bo'lgan qiziqishi so'nishi mumkin. Shu tufayli, bolalarga ingliz tilini o'rgatishda eng qiziqarli va rang-barang usullardan foydalanish maqsadga muvofikdir. Bunday usullardan biri bub iron mavzuni qo'shiqlar orqali qo'l harakatlari yordamida tushuntirishdir. Masalan, ingliz tilida oila mavzusini shunchaki oddiy o'rgatish samarasiz usuldir. Aksincha, agar qo'shiq tarzida qo'l haraklari bilan yodlatish ancha samarali bo'ladi. Bolalarni xotirasida saqlab qolish imkoniyati yanada oshadi. Shuningdek, bolalarga ingliz tilini o'rgatish jarayonida innovatsion axborot texnologiyalarini qo'llash, ya'ni ekranda qisqa metrajli multfilmlar ko'rsatish ham g'oyat foydali usullardan biri. Bilamizki, bolalar rang-baranglikni yoqtiradi, multfilmlar esa ularning diqqati jamlashda va yanada qiziqishini orttirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, ingliz tilida salomlashish mavzusini tushuntirib, saomlashishga oid so'zlarni turli multfilmlardagi multiqahramonlarning salomlashish kadrlarini ko'rsatish orqali o'rgatish bolalarga yanada qiziqarli bo'ladi va shu bilan birga, bolalarni chet tilidagi so'zlarni to'g'ri ta''affuz bilan o'zlashtirishlariga kata yordam beradi.

Darhaqiqat, bolalar chet tilidagi multfilmga to'liq tushunmaydi, biroq, multi qahrammonlar harakatlari orqali tushunishga harakat qiladi. Qolaversa, bolani chet tilida eshitganlari, ko'rganlari ma'lum miqdorda bolaning orqa miyasida saqlanib qoladi va bu kelajakda bolani chet tilini mustahkam o'zlashtirishiga va yaxshi eslab qolishiga yordam beradi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassalaridagi va umumta'lim maktablaridagi boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini o'rgatishdagi yana bir g'oyat muhim metodlardan biri bu o'yin metodi sanaladi. "O'yin alohida tashkil etilgan mashg'ulot bo'lib, bunda bolaning emotsional his-tuyg'ular va aqliy imkoniyatlarining safarbar etilishini biror-bir qaror qabul qilishda qanday yo'l tutish,

fikr bildirish, qanday qilib yutuqqa erishish kabi vazifalarni amalga oshirish bolaning fikrlash qobiliyatini jadallashtiradi. Bolalar o'zлari bilmagan o'ylamagan tarzda chet tilini o'ргана boshlaydi” [2]. Haqiqatdan, o'yin orqali bolalarga ingliz tilini o'rgatish eng qiziqarli va o'ta samarador usuldir. Masalan, ingliz tilida yovvoyi hayvonlar mavzusini bolalarga o'rgatganda, bolalarga koptok o'yini orqali yoki 2 guruhga bo'lib, hayvonlarni tovushlari orqali ularning ingliz tilidagi nomlarini topish kabi o'yinlar bolalarni bilimlarini mustahkamlashda, ularning o'zlashtirish darajasini yanada oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, o'yinlar psixologik jihatdan olib qaraganda, o'yinlar bolalarni o'rganish motivatsiyasini yanada oshiradi va xotira imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, chet tilini yaxshi o'zlashtirishda bolalar o'rtasida turli mavzularga doir qisqa dialoglar tuzishni o'rgatish va bu orqali bolalarni chet tilida so'zlashishini ta'minlash bolalarning kommunikativ salohiyati yanada ortishiga ulkan hissa qo'shadi. Bundan tashqari, bolalarga chet tilini o'qitishda, tez aytishlardan foydalanish ham ahmiyatlidir. Boisi, tez aytishlar chet tilida bolalar nutqining ravon bo'lishiga va talaffuzda qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordam beradi. Shu bilan birga, bolaga har qanday sohani o'rgatishda, ayniqsa, tilni o'rgatishda, bolalarni rag'batlantirish muhim tamoyillardan biridir. Sababi, rag'batlantirish bola ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bolaning intilishi va qiziqishini yanada oshiradi.

Ma'lumki, bola 1-sinfda o'z ona tilida yozish va o'qishni o'rganadi va 2-sinfdan esa chet tili alifbosini o'zlashtirishga layoqatli sanaladi. Shuning uchun 2-sinfdan boshlab bolalarga chet tilini o'qitishda yuqorida ta'kidlangan usullarni qo'llashda davom ettirish bilan bir qatorda, bolalarda ingliz tilida yozish va o'qish ko'nikmalarini ham shakllantirib borish darkor.

Xulosa qilib aytganda, bolalik shaxs shakllanishidagi jadal taraqqiyot davri hisoblanadi va bu davr psixologiya jihatidan bir necha davrlarga bo'linadi. Til o'rganish esa bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri sanaladi. Bolalarga chet tilini o'rgatishda ularning yosh davrlarini, imkoniyat va salohiyatlarini hisobga olgan holda o'rgatish lozim. Shuningdek, bolalarga chet tilini oddiy dars sifatida yoki bir majburiyat sifatida emas, balki, qiziqarli mashg'ulot sifatida, turli samarali va rang-barang usullardan foydalanib darslar o'tish lozim. Shundagina bolalarda kuchli intilish va qiziqishni paydo qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.Nishanova, G.Alimova.—“Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi”.— Toshkent.—2006.—4 b.
2. Boshlang'ich Ta'lrim jurnali. — “Chet tilini o'rganishda bola psixologiyasi”. — 2014.—4-son.